



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

3 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2022

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайжон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамова Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Раҳмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Аббор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
Тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Ўзбекистон жаҳон
тиллари университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Раҳбархон Муртазаева ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА ЁШЛАРГА ОИД ДАВЛАТ СИЁСАТИ.....	6
2. Дилором Бобожонова ЎЗБЕК ОИЛАЛАРИДА ТИББИЙ МАДАНИЯТНИ ОШИРИШ, СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ.....	17
3. Баҳодир Эшов ҚАДИМГИ ШАҲАРЛАР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ТАҲЛИЛЛАРИ.....	26
4. Зумрад Раҳмонкулова МАҲМУД АМИН АФАНДИ “ИСТАНБУЛДАН ЎРТА ОСИЁГА САЁҲАТ”.....	34
5. Манзура Аминова ИБН ХОЛДУН ИЛМИЙ МЕРОСИНING ЗАМОНАВИЙ АҲАМИЯТИ.....	41
6. Тўлқин Ахмедов ТУРКИСТОНДА БИРИНЧИ РУС-ТУЗЕМ МАКТАБИ: МАЪМУРИЙ ЭҲТИЁЖ ЁКИ МАДАНИЙ ЯҚИНЛАШУВ ЗАРУРИЯТИ?.....	48
7. Мансур Бойсариев ОЗАРБАЙЖОН ДИАСПОРАСИ ВАКИЛЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМ-ФАНИ ТАРАҚҚИЁТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ.....	56
8. Фируза Жуманиязова ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ХОРАЗМ ХОТИН-ҚИЗЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ҲАЁТДАГИ ФАОЛЛИГИНИНГ ДАВРИЙ НАШРЛАРДА АКС ЭТТИРИЛИШИ (1941–1945 йиллар).....	64
9. Мухаммаджон Исамиддинов АНТИК ДАВР ЁЗМА МАНБАЛАРИДА САМАРҚАНД ТАРИХИНИНГ ЁРИТИЛИШИ.....	70
10. Бахыт Кошанов, Хакимбай Отегенов, Гулчехра Ержанова ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ТАРИХШУНОСЛИГИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ.....	79
11. Shohruhbek Mamadaliyev TURKISTON SHAHARALARIDA OCHLARGA YORDAM KOMISSIYASI FAOLIYATI TARIXIDAN.....	87
12. Gulnora Maxkamova XX ASR SAMARQAND KASHTALARI: XILLARI, USLUBLARI, ORNAMENT REPERTUARI (SAMARQAND DAVLAT MUZEYI NAMUNALARI MISOLIDA).....	93
13. Уктамжон Мансуров VI – XI АСРЛАР СУҒД ЁЗМА ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА ЎРГАНИЛИШИ.....	100
14. Шоназар Матякубов XVI- XVIII- АСРЛАРДА ХИВА ХОНЛИГИ ҲУНАРМАНДЧИЛИГИНИНГ АСОСИЙ СОҲАЛАРИДАН БИРИ-КУЛОЛЧИЛИК ТУРИ ТАВСИФЛАРИ.....	105

15. Отабек Махмудов «МИЛЛИЙ ТАРИХ» ВА «ТАРИХ ТАЪЛИМИ»ДА «ЖАҲОН ТАРИХИ»НИНГ АҲАМИЯТИ (лотин тилли тарихий манбалар ва замонавий ўзбек илмий адабиётининг қиёсий таҳлили медиєвистик талқинда).....	109
16. Sayyora Mirsoatova, Aхrorbek Muxsidinov O‘ZBEKISTONDA MEZOLIT DAVRI YODGORLIKLARINING O‘RGANILISHI HAQIDA.....	122
17. Зухра Ражабова ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ СИЙМОСИННИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ.....	128
18. Мафтуна Рузикулова ФАРҶОНА ВОДИЙСИНИНГ МЕЛИОРАЦИЯ ВА ИРРИГАЦИЯ ИШЛАРИ ТАРИХИДАН (1950 – 1970).....	134
19. Хасанбой Рахматиллаев ҚАДИМГИ ВА ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ МУАММОЛАРИ ҲАҚИДА.....	139
20. Lutfiya Salomova AVSTRALIYA MILLIY ARXIVI FAOLIYATI HAQIDA.....	144
21. Наргиза Сейтимбетова ҚОРАҚАЛПОҶИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚОЗОҚ МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МАРКАЗИ.....	148
22. Shaxnoza Tursunova O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BENILYUKS DAVLATLARI BILAN XALQARO MUNOSABATLARINI RETROSPEKTIV TAHLILINING AYRIM JIHATLARI.....	156
23. Икромжон Умаров КЎҲИТАНГТОҶ ҚИШЛОҚЛАРИНИНГ ҲУДУД БЎЙЛАБ ЖОЙЛАШУВ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲОЛИНИНГ ЭТНИК ТАРКИБИ.....	161
24. Ма’мура Umarxodjayeva, Zilola Shodmonxo`jayeva, Nodira Xasanova O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYINING NOYOB XAZINASIDAN.....	174
25. Санъат Худайбергенов ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЯНГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ХОРИЖИЙ ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	178
26. Ҳабиба Ҳасанова 1917-1924 ЙИЛЛАРДА ТУРКИСТОН МИНТАҚАСИДА БОСМАХОНАЛАРНИНГ ТЕХНИК ҲОЛАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	186
27. Ра’но Qodirova 1936-1937 YILLARDA O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA TARIX FANINING O‘RGANILISHI (M.Asimov hisobot materiallari asosida).....	192


28. Қосим Қосимов ШАРҚИЙ БУХОРОДА ҚИЗИЛ АРМИЯГА ҚАРШИ МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТЛАРИ.....	196
29. Ислом Қаршиев МУТАФАККИР СЎФИ ОЛЛОЁР ҚАРАШЛАРИДА ТАСАВВУФИЙ ҒОЯЛАР ТАҲЛИЛИ.....	203
30. Гулжаҳон Шайдуллаева ХАРАППА МАДАНИЯТИ ЁДГОРЛИКЛАРИДАН ТОПИЛГАН ОКС ЦИВИЛИЗАЦИЯСИГА ХОС БЎЛГАН МОДДИЙ МАНБАЛАР ТАҲЛИЛИДА МАДАНИЙ ВА САВДО АЛОҚАЛАРИ.....	209
31. Fotima Shirinova, Zumrad Kosimova XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI, UNING MONIYATI VA OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIK.....	222
32. Юлдаш Юлдашев ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ДАВЛАТ АРХИВИ 555-ФОНДИНИНГ АРХИВ МАНБАШУНОСЛИГИ ТАҲЛИЛИ.....	230
33. Акмал Якубов ХИВА ХОНЛИГИНИНГ ТАШҚИ САВДО МУНОСАБАТЛАРИ (Дашти қипчоқ мисолида).....	237
34. Акмал Якубов ХИВА ХОНЛИГИ ВА ҚОЗОҚ ЖУЗЛАРИ (ўтроқ ва кўчманчилар ўзаро алоқларининг негизлари).....	246
35. Лазизахон Алиджанова ДИНИЙ ТАЪЛИМОТЛАРДА ТИББИЁТГА ОИД ИЖТИМОИЙ ҚОИДАЛАР ТАҲЛИЛИ.....	256
36. Дилрабо Қурбанова ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК СИЁСАТИ.....	264
37. Камола Саипова УРУШ ДАВРИДАГИ ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ БАҒРИКЕНГЛИК КЎРСАТИШИ.....	274
38. Аҳадулла Раҳматуллаев ТУРКИСТОНДАГИ МАҲАЛЛИЙ ЎЛКАШУНОС ВА КОЛЛЕКЦИОНЕРЛАР ФАОЛИЯТИ.....	280
39. Азамат Ктайбеков ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ЎЗГАРИШЛАР (2000-2016).....	288
40. Гулнора Худойберганава “АСКЕТИЗМ” ТУШУНЧАСИ ВА ДИНЛАРДА АСКЕТИК АМАЛИЁТЛАРГА МУНОСАБАТНИНГ ТАҲЛИЛИ.....	293



Gulnora Abilkasimovna Maxkamova,
mustaqil izlanuvchi,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy
rassomlik va dizayn instituti

**XX ASR SAMARQAND KASHTALARI: XILLARI, USLUBLARI, ORNAMENT
REPERTUARI (SAMARQAND DAVLAT MUZEYI NAMUNALARI MISOLIDA)**

For citation: Gulnara A.Makhkamova, SAMARKAND EMBROIDERY OF THE XX CENTURY: CHARACTERISTIC, STYLES, ORNAMENTAL REPERTORY (BY THE EXAMPLES OF THE SAMARKAND STATE MUSEUM). Look to the past. 2022, Special issue 3, pp.93-99

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.7485284>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asr Samarqand kashtachiligining o'rganilganligi, buyum turlari, tikish va ko'rinish jihatidan uslublari, saqlanib qolgan qadimgi naqsh turlari hamda mashinka va qo'l kashtasidagi o'zaro umumiy va hususiy jihatlari tahlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: bosma, yo'rma, so'zana, bolinpo'sh, kandahayol, iroqi, duro'ya, oyna xalta, choy xalta, abri bahor, kordi osh, chorchiroq, rozetka, mashinka kashtasi, popur, zardevor, artel.

Гульнора Абилкасимовна Махкамова,
Самостоятельный соискатель,
Национальный институт художеств и дизайна
имени Камолиддина Бехзода

**САМАРКАНДСКИЕ ВЫШИВКИ XX ВЕКА: ХАРАКТЕРИСТИКА, СТИЛИ,
ОРНАМЕНТАРНЫЙ РЕПЕРТУАР (НА ПРИМЕРАХ ЭКСПАНАТОВ
САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ)**

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен анализ видов изделий, стилей шитья и изобразительного искусства, сохранившихся древних узоров, общих и специфических аспектов машинной и ручной вышивки самаркандского региона XX века.

Ключевые слова: басма, ёрма, сюзане, болинпуш, шов кандахаёл, шов ираки, шов дуроя, мешочек для зеркала, мешочек для чая, мотив абри бахор, мотив корди ош, мотив чорчирок, розетка, машинная вышивка, покур, зардевор, артель.

Gulnara A.Makhkamova,
independent researcher,
The National Institute arts and design

named after Kamoliddin Behzod

SAMARKAND EMBROIDERY OF THE XX CENTURY: CHARACTERISTIC, STYLES, ORNAMENTAL REPERTORY (BY THE EXAMPLES OF THE EXPANSIONS OF THE SAMARKAND STATE MUSEUM)

ABSTRACT

This article presents an analysis of the types of products, styles of sewing and fine arts, preserved ancient patterns, general and specific aspects of machine and hand embroidery of the Samarkand region of the twentieth century.

Index Terms: basma, yorma, suzani, bolinpush, kandakhayol seam, iraqi seam, duroya seam, mirror bag, tea bag, abri bahor motif, cordi osh motif, chorchirok motif, rosette, machine embroidery, popur, zardevor, artel.

1. Dolzarbligi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: "Keyingi yillarda mamlakatimizda qadimiy va boy tariximiz, milliy o'zligimiz, betakror qadriyat va an'analarimiz timsoli bo'lgan xalq amaliy san'atini rivojlantirish, hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ushbu yo'nalishda xalqaro hamkorlikni kengaytirish va shu asosda O'zbekistonning bu sohadagi ulkan salohiyat va imkoniyatlarini dunyoga namoyon etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jahon xalq amaliy san'atini, uning ajralmas qismi bo'lgan o'zbek milliy hunarmandchiligini asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan ana shunday ezgu ishlar ushbu bebaho boylikni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, bu yo'ldagi sa'y-harakat va imkoniyatlarimizni birlashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash lozim"[1]. Bu esa mavzu dolzarbligini o'zida ifoda etadi.

1. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Ushbu maqola tarixiylik, ilmiylik va hududiy yondoshuvlar singari tarixiy metodlar asosida yaratilgan, unda Samarqand davlat muzeyi namunalari misolida XX asr Samarqand kashtalari: xillari, uslublari, ornament repertuari o'rganilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Amaliy san'atning kashtachilik turi aynan xalq hunarmandchiligiga xosdir va u yurtimizda qadimdan rivojlangan. O'zbek oilalarida qiz farzand dunyoga kelgach, u yetti yoshga to'lganidan onalari va buvilari tomonidan unga kelinlik sarposi yig'ilishi urf hisoblanib, bu sarpolarning kattagina qismini kashtachilik buyumari tashkil qilgan. Turmushga chiqayotgan qizning xonadonida to'ydan oldin kelin sepini tikish uchun ayollar marosimi tashkil qilingan va qarindosh buvilar, ayollar, qo'shni kelin va qizlar sarpolarni tikish uchun xasharga kelishgan. Bu marosim uch kundan besh kungacha davom etgan.

Manbalarda yozilishicha qadimiy kashtalar Mongoliya hududi (Noin Ula)dan topilgan va unda ot mingan odam o'simliksimon naqsh ko'rinishida tasvirlangan. O'zbekistonda esa eramizdan avvalgi II asrda Qadimgi Baqtriya ya'ni, yurtimizning janubiy tomonlari va Tojikiston hududida odamlar kashtachilik bilan shug'ullanganlar, ular silliq bosma usulida tikilgani ta'kidlanadi. Temuriylar saltanatiga kelgan Ispaniya elchisi Klavixo Temur saroyida rang-barang ipak gazlamalar va ularga gullar, barglar tushurilgan kashtalar bo'lganini yozib qoldirgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kashtachilik san'ati O'zbekistonda juda rivojlandi. Bu rivojlanishni kashtachilikning lokal markazlari Nurota, Buxoro, Samarqand, Urgut, Shahrisabz, Toshkent, Farg'ona kabilarda kuzatiladi.

Xususan, Samarqandda so'zanalar yangi kelin uyida uzoq saqlangan va ular uch turda: so'zana, ro'yijo va bolinpo'sh hamda islomdan so'ng buning tarkibiga joynamoz ham kirgan va bu Samarqandda kelinlik ucun bir komplekt hisoblangan. Mahalliy xalq kashtani xosiyatli ya'ni "xosiyat daron" (xosiyat olib keladi) deb bilishgan.[2]

Samarqandda kashtalar o'zining naqshlari, rangi, tikish usuli, urf-odatlar bilan bog'liq buyumlari mavjud. Amaliy san'at namunalari har bir hududning urf-odatini, yashash tarzi va tushunchalarini, tarixini anglatarkan, Samarqand kashtachiligidagi turlicha naqshlar o'ziga xos ma'no kasb etadi. Afsuski, bugungi kunda Samarqandning hunarmandchilik rastalarida kashtachilik

buyumlarida aralash ko'rinish kasb etadi. Buyumlar tikish texnikasi jihatidan lokal markazlarning barchasini o'zida nomoyon qilgan ya'ni, qorishgan holdadir.

Mahalliy xususiyat, ya'ni Samarqand kashtachiigining asl holati saqlanib qolinmayapti va bu albatta Samarqand kashtachilik san'atining kelajagiga juda katta salbiy ta'sir o'tkazadi. Kelgusi avlodga san'atimizni to'laqonli etkazishimiz bugungi kunda davlatimiz tomonidan ham muhim vazifa qilib belgilangan. Zero, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan siyosatida ".....hunarmandchilik sohasida madaniy va tarixiy jihatdan chuqur izlanishlar olib borish, ilmiy-amaliy hamkorlikni kengaytirish va amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijalarini ommalashtirish" [3] muhim ustivor vazifa qilib belgilangan ekan, bu har jihatdan Samarqand kashtachiligini tadqiq qilishni taqozo etadi. Ko'zlangan maqsad asl Samarqand kashtachiligining xususiyatlarini saqlab qolish va kelgusi avlodga asl holicha yetkazishdir. Mazkur vazifa adabiyotlar tahlilini talab qiladi. Jumladan:

-Чепелевская Г.М. "Сузани Узбекистана" adabiyoti kashtachilik tarixi, XIX – XX asr O'zbekiston kashtachilik markazlarining naqsh turlari va rang koloriti izohlangan. Masalan Nurota kashtalari naqsh nomlari "gul-baxmal", "gul – hafti yak" (etti rangli gul) kabilarning izohi tadqiqot uchun muhimdir.

-D.A.Faxretdinova, 1972 г "Декоративно-прикладное искусство Узбекистана", 1961. – 160 с) adabiyotida 1917 – 1970-yillarda O'zbekiston amaliy san'ati, shu jumladan kashtachiligi uslubiy jihatlari solishtirilganligi bilan tadqiqot uchun muhim manbadir.

-Народное декоративное искусство советского Узбекистана.1954 г.Т. Mazkur adabiyotniung amaliy san'at turlarining yillar bo'yicha tasnifini o'zida aks ettirgan.

-Гюль, Эльмира. Сады небесные и сады земные: вышивка Узбекистана: скрытый смысл сакральных текстов: [монография] kashtachilikdagi naqshlarning tarixi va ularning ramzlari haqida ilmiy tahlillari bilan tadqiqot uchun qimmatlidir.

-Ф.Абдухолиқов, Э.Ртвеладзе, Э.Гул «Ўзбекистон каштачилиги ва гиламлари хорижий тўпламларда» китоб-альбоми. 2016. – tadqiqot uchun Samarqand Davlat Muzeiyidagi yirik kashtachilik namunalri muhimdir.

-Yohannes Kal'ter, Gizela Dombrovskaya, Dizela Xelmeeke (Germaniya) manbaalari Turkiston amaliy san'atiga bag'ishlangan.

Tadqiqot uchun muhimi etnograf, sharqshunos olimi Olga Aleksanrovna Suxareva tomonidan Samarqand kashtachiligini XIX asr II yarmi va XX asr boshlariga oid izlanishlarni olib borgan:

-«Орнамент декоративных вышивок Самарканда и его связь народными представлениями и верованиями» (вторая половина XIX в. и начало XX в.) qadimiy naqshlarning ma'nosi izohlangan va xalq turmushidagi urf-odatlar bilan bog'liqli yoritilishi juda qimmatlidir.


-Suzani. Central Asian decorative embroidery.—Т, 2011. bo'lib, Samarqand kashtasi O'rta Osiyoda eng hususiyatli ekanini, matosi, ashyosi va tikish uslubi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

XX asr Samarqand kashtachiligining yirik kashtachilik buyumlari: so'zana, bolinpo'sh, ro'yijo, zebidevor hamda joynamozlardir. Mayda kashtachilik buyumlari: dasturxon, choy xalta, oyna xalta, tuz xalta, shona xalta. Bu buyumlar urf-odat bilan bog'liq. Masalan, oyna xalta qadimda nurotalik kelinlar uyida juft holda oyna va shona xalta bo'lishi shart edi. Yoki Samarqand kelinlarida bolinpo'sh, so'zana, joynamoz va ro'yijo bir komplekt hisoblangan. Buyumlarning jozibador tikilishidan mazkur buyumlar insonlar hayotida o'rni yuqori bo'lganini bildiradi.

Mazkur buyumlarning har birining kundalik turmushida vazifasi bo'lgan: Masalan, bolinpo'sh (XX asr boshlarigacha) – Samarqandda kelinlarni kuyovning uyiga otda olib kelishgan va kelin-kuyovni to'uygacha olib kirishda boshiga bolipo'shni kuyov jo'ralari tomonidan to'rt tomonidan ushlab kuzatishgan hamda bu keyinchalik ularning turmushida kundalik ko'rpa-yostiqlarni ustini yopish uchun yopinchiq vazifasini bajargan.

XX asr Samarqand kashta uslublaridan – bosma (kandahayol, chindahayol, duro'ya) yo'rma (bigiz va ignada bajarilgan) iroqining Samarqand sanama usuli ko'p qo'llangan. So'zana va bolinpo'shlardagi yirik rozetkalar bosma usulda tikilgan va naqsh chetlari bigizda yo'rmaalab chiqilgan. Mayda buyumlar, oyna xalta va choy xaltalar esa ko'pincha yo'rma usulda tikilgan.

Duro'ya tikish choki esa sochiq va ro'mollarda foydalanilgan. Chunki u ikki tomondan ham naqshlarning bir xil ko'rinishini o'zida namoyon qilgan.




Kashtachilikning yo'rma usuli

XX asr Samarqand kashtalarida asos va tasvir uchun turli ranglardan, naqshlardan foydalanish uslubi oq chit asosiga sanoqli ranglar va sanoqli naqshlar: yirik va mayda rozetkalar, bodom, choynik, qalmapir, kordi osh, qaychi va turli qalinlikdagi qurlar bilan almashimganini ko'ramiz. Oq asosga qora qurli jigarrang rozetkali so'zana uslubi Samarqandda juda urfga kirgan.

XX asr boshida mashina kashtasidan foydalanish kashtalarda uslubiy jihatdan yangicha ko'rinishlarni aks ettirdi deyish mumkin. O'zbekistonda 1930-yillarda hunarmandchilik artellarga birlashtirilgan va kashtachilikda 13 ta artellardan biri (1928-yilda mavjud artel) 1931-yilda "Труд женщин" (ya'ni "Ayollar mehnati") arteli edi. Artelda Nurotalik chizmakashlar so'zanalari mashhur edi. Kvadrat va to'rtburchak so'zanalar tikildi. Artelida turli buyumlar: ayollar va erkaklar kiyimlari uchun kashtali bezaklar dasturxon, naqshli do'ppilar qo'lda va mashinkada tikilgan.

Tematik kompozitsiyalarda kashtalar tayyorlangan. Ilk bor Samarqand va Toshkentda ("Stalin portreti" I.V.Sharipova tomonidan, "Dambul portreti", "Xamza portreti" – Fazilat Sayidaliyevlar tomonidan) yaratilgan pannolar xarakterlidir. Qo'lda kashta tikish ham oz bo'sada saqlanib qoldi va bolinpo'sh, joynamoz, so'zana, joyposhlar tikildi. Do'ppi yoppasiga urf bo'ldi. Iroqi naqshning katta sanama usulini ustalar qadimgi chok deyishadi va u asosan do'ppilarda uchraydi. 1930-yillar oxiri va 1940-yillarda Samarqandda tarqalgan edi. Shuning uchun shaxrisabzlik ustalar "Samarqand sanama" deb nomlashgan.

Artelida kashta naqshlari va ko'rinishlari boyitishga yangi shartliliklarni yaratishga harakat qilindi. Bu artelda xalq ustalari, rangtasvirchi-rassomlar ya'niy xalq san'atini chuqur tushunadigan ijodkorlar biri




Kashtachilikda bosma usulning kandahayol turi

Zinayida Kovolevskaya ham chizmakashlik faoliyatini olib borgan hamda u o'z ishlarida Buxoro va Nurato kashtalarini asos qilib olgan. Chunki Buxoro va Nurato tikish uslubi zanjirchok

edi va u mashinka kashtasining tikish uslubiga yaqin edi. Mashina kashtashi XIX asr kashtalaridagi xususiyatni namoyish qilgan, anor, boy tusli rang gammalarni, garmonik tarzda tuzilgan, qushlar tasviri tushirilgan. Samarqand mashina kashtasi yorqinligi bilan ajralib turadi.

XX asr Samarqand kashtalarida ornament repertuari haqida fikr yuritganda XIX asr Samarqand kashtalari nihoyatda rang-barang, naqshlari ham bisyor, turli gular chinnigul, gulsapsar, olcha shoxi, qalampir buta, yulduz, nozik


obali naqshlari, mayda jimir-jimir gulchalar, paypoqi shutur, chor shoxu yak moh, o'rdak mo'yin, tovus, ot kabi yuzlab naqshlardan



Kashtachilikdagi mashinkada kashta tikish usuli

XX asr Samarqand kashtalarida katta, o'rta va kichik rozetkalar, yo'gon qurlar, qalampir va bodom, anor, butali naqshlar, pichoq, ko'zacha va choynik, qo'chqorak, abri-bahor kabilar tikildi.

1920-yildan keyingi Samarqand maktabiga xos rozetkali kashtalar sanoqli ranglardan iboratligi kuzatiladi. Ya'niy quyuq qora qu'r bilan o'ralgan 3 yoki 4 rangning tuslaridan foydalanilgan. Kashta kompozitsiyasi yirik, rozetkalar takroriy joylashgan va ularni bo'glovchi naqshlar sanoqli bo'lsada naqsh qismlari bir-biriga mutanosib bog'langan. Bitta kashtada sanoqli motivlar bo'lsada ammo ular bir xil emas, turli yirik kashtalarda turlichadir. San'atshunos olimi Elmira Gul Samarqand kashtalaridagi naqshlarni islom dinigacha bo'lgan davrga ya'niy ilk o'rta asrga borib taqalaishini o'zining ilmiy maqolalarida tahlil qilgan.



Kashta tikishda iroqi usul

“Kashtadagi mashhur yulduzli motivni biz qadimiy ilk o'rta asr Sug'd san'atida, metalga baddiy ishlov berish va terrakotalarida ham ko'ramiz. Yana Afrosiyobning terrakotali ostadonlarida musiqa asbobini chalayotgan qiyofa o'tirgan joyida yirik yarim aylana ichida yulduzli tasvirdagi naqshini ko'ramiz. (VI – VII BB.)”[4]

Darhaqiqat, Samarqand kashtalaridagi naqshlar Buxoro kashtalaridagi kabi zich jolashtirilgan huddi chaman kabi emas. Buxoro kashtachiligida islom dini ta'siri kuchligini sezamiz. Ammo

Samarqand kashtalarida ramziy naqsh va motivlar juda bisyor. Buxoro kashtalarida daraxt va butalar real tasvirli bo'lsa, Samarqand kashtalarida bu manzaraning real elementlari ramziy tarzda kompozitsion mutanosiblikda joylashtirilgan. Ijod – bu inson ongining yuqori va murakkab darajasidir. Zero “U insonning o‘z bilimi va malakasi, hayotiy tajribalari natijasida tug‘iluvchi imo‘jizadir” [5].

Choynak, ko‘zacha yoki guldon naqshlari. Bularning barchasi suv uchun idishlar bo‘lib, ularning turli ko‘rinishlarini uchratamiz. Masalan, Nurota kashtalari chamanni eslatadi va ularda guldon va ko‘zalar ramzlari bor. Buning ramzi suv obi hayot manbayi ekanligidir. (KP-691, KP-3007). Ammo Samarqand kashtalarining aksariyatida joynamozlarda choynak, obdasta ramzi ibodatdan oldin poklanish ramzi bo‘lsa, dasturxonada esa choynak ramzi mehmondo‘stlik belgisidir (Urgur kashtalari).

Shuni ta’kidlash kerakki, so‘zanalarda ba‘zan asosiy bezak sifatida yirik rozetkalar ichida, yonida, bazan ko‘rimsiz bir chekkasida, ba‘zan esa yirik ko‘rinishda markazda choynak ramzlari uchraydi. Yirik ko‘rinishda bu dasturxonlarda uchraydi. Natijada kashtado‘zlar naqsh va motivlarni buyum hususiyatidan kelib chiqib tikishgan degan fikr tug‘iladi.

“Chor-chiroq” naqshi – bu asosan, Samarqand kashtalarining qadimiy nusxalarida uchraydi. O‘zbek xonadonlari mayishiy hayotida ishlatiladigan buyumning stilizatsiyalangan ko‘rinishidir. Bu ham yorug‘likning bardavom bo‘lishini istashdir.

“Bodom” motivi – bu kashtachilikning lokal markazlarining barchasida keng tarqalgan naqsh bo‘lib, yomon ko‘zdan asrash, yovuz ruhlardan himoya qilish vazifasini o‘taydi degan tushunchalar samarasidir.

Bu borada olim Olga Aleksandrovna Suxaryova fikrlari bor. Olima bodomning ma’nosini ancha vaqtlar aniqlolmagani va bir kun Urgutning tojik qishlog‘ida bolakayning qo‘lchasiga taqilgan achchiq bodomdan munchoqni ko‘rgani hamda bodom bolani yomon kuchlardan asraydi degan tushuncha borligini ta’kidlaydi. Yana achchiq bodom juda achchiq hamda uning zaharli turi ham bor deydi. Olima shu sabab u qalampir bilan birga tasvirlanadi deydi. Darhaqiqat, Nurota va Buxoro, Samarqand kashtalarida bodomning biroz cho‘ziq ko‘rinishi – qalampir naqshi ham ko‘p uchraydi. Buning ma’nosi ko‘z tegmasin, yovuz ruhlardan himoya kabi tushunchalar samarasidir. Bu tushunchalar hozirda ham saqlanib qolgan bo‘lib, Samarqandning tumanlarida qalampirni ipga tizib piyoz bilan birga, ko‘zga ko‘rinarli, yuqoriroq joyga ilib qo‘yishadi.

XIX asrda qo‘llangan **pichog va chorchiroq** XX asrda ham qo‘llanildi. Osh pichog‘i – Osiyo pichog‘ining barcha ko‘rinishlari – uch qismi osmonga qayrilgan, o‘simliksimon ko‘rinishli, shunga yaqin tig‘li buyum “teg” (tig‘cha-) oq matodagi yirik rozetkalar aro tez-tez uchraydi. Bundan bilish mumkinki, pichoqni nafaqat keng foydalanuvchi mayishiy vazifaga ega balki, kuchli himoya buyumi ham deb bilishgan. Yovuz kuchlar pichog‘i bor odamga teginmaydi qabilidagi fikr bo‘lib, erkaklar doim belbog‘iga pichog, hanjar taqib yurgan.

Yana tig‘li buyum qaychi ramzi **“qaychi”**ning dastasi tashqariga qayrilgan ko‘rinishlidir. Bundan bilish mumkinki, pichoqni nafaqat keng foydalanuvchi mayishiy vazifaga ega balki, kuchli himoya buyumi ham deb bilishgan. Yovuz kuchlar pichog‘ bor odamga teginmaydi qabilidagi fikr bo‘lib, erkaklar doim belbog‘iga pichog, hanjar taqib yurganligini ta’kidlaydi.

4. Xulosa qilsak:

- Samarqand kashtachiligi adabiyotlarda O‘zbekiston amaliy san’ati doirasida o‘rganilgan;
- Albom-kataloglarda XIX asr oxiri va XX asr boshidagi bosma, yo‘rma kabi usuldagi qo‘l kashtasi tasviri ma’lumot manbayidir;
- O‘rganilish davrida asosan XIX asr oxiri va XX asr boshi qo‘l kashtalari, XX asrning 70-yillarigacha mashina kashtasi tadqiq qilingan;
- O.A.Suxaryova adabiyotlarini bevosita Samarqand kashtado‘zlari va chizmakashlaridan olingan natijalari tahlil qilingan, ammo 1970-yillardan so‘nggi Samarqand kashtasi buyumlari, texnikasi, ashyosi haqida boshqa adabiyotlarda aks etmagan.
- O.A.Suxaryova tomonidan muzeyga qabul qilingan kashtalarning ashyolari: iplari, matosi va ularning tayyorlanishi o‘sha davr xalq badiiy hayoti haqida ma’lumot berishi bilan ahamiyatlidir;

- Kashta kartatekalarida Samarqand kashtalarining keltirilgan joyi, chizmakash, kashtado'zlar haqidagi ma'lumotlar o'sha davr kashta maktablari haqida ma'lumot berishi bilan qimmatlidir. (Masalan Urgut, Go'z, Motrid, So'zangaron, Xayrobod.)

- XX asr Samarqand qo'lda kashta tikish usullari bosma (kandahayol, chindahayol) va yorma, iroqi (sanama usuli asosan do'ppilarda), piltado'zi ham asosan do'ppilarda ishlatilgan;

- Mashina kashtasida popur usulida buyumlar (yirik kashtalar, ayollar va erkaklar liboslariga bezaklar, dasturxon va salftaklar) tikilgan;

- Kashtado'zlar naqsh va motivlarni buyum hususiyatidan kelib chiqib tikishgan;

- Samarqand kashtachiligida islom dinigacha bo'lgan otashparastlik dini ta'siri mavjud;

- Kashta naqshlari bitta amirlik tarkibida va bu xalq san'ati bo'lganligi uchun ulardagi yirik rozetkalarda yoki chorchiroq, oba naqshlarida o'xshashlik mavjuddir;

- Namunalar o'z davri ijtimoiy va badiiy hayotidan so'zlaydi.

Mashinka kashtasida:

- Samarqanddagi artelda ishlab chiqarilgan yirik kashtalar naqshlari qo'l kashtasi naqshlaridan olingan. Ammo rang jihatidan mashinka kashtasi rang-barang va bu qadimiy qo'l kashtasi hususiyatini o'zida davom ettirgan;

- Artel namunalarida ko'proq Nurota kashtasi naqshlarida anor tasviri uchraydi. Bunga sabab artelda chizmakashlar Nurotalik chizmakashlar edi.

- Mayda kashta buyumlaridan qo'l kashtasida do'ppilar ko'proq tikildi.

- XX asr boshigacha tikilgan oyna xalta, shona xaltalar faqatgina muzey ekspozitsiyalarida qoldi.

- XX asr Samarqand qo'l kashtachiligida susaygan bo'lsada, 1930-yildan so'ng undagi rang va naqshlar mashinka kashtasida davom etdi

- XX asr Samarqand badiiy hayotida 1928-(1931)yilda tashkil qilingan "Труд женщин" artelining alohida o'rni bo'lgani sabab, artelning bugungi kundagi faoliyatini o'rganish lozim;

- Artel tarkibida uning tarixiga oid muzey tashkil qilish haqida taklif va tavsiyalar berish kerak;

- Arxiv manbalaridan ilk ishlatilgan mashinkalar, chizmakashlar va kashtado'zlar haqida ma'lumotlarni shakillantirish, artelda tikilgan ishlardan namunalarni namoyish qilish lozim va h.k.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida, Toshkent sh., 2019 yil 3 oktyabr', PF-5841-son.[1;3]
2. Чепелевецкая Г.Л. "Сузани Узбекистана" (Государственное издательство художественное литературы. Гослитиздат УзССР, 1961. - 160) [2]
3. Советская этнография ссср.1954 г. О.А.Сухарева.«Орнамент декоративных вышивок Самарканда и его связь народными представлениями и верованиями» (вторая половина XIX вв. и началь. XX вв. 70 бет.[3,5]
4. Гюль, Эльмира. Сады небесные и сады земные: вышивка Узбекистана: скрытый смысл сакральных текстов: [монография] [4]
5. The Role of Compositional Principles in the Creation of Works of Fine Art I. U. Izbosarov.81 bet.
6. Samarqand davlat muzeyi fond namunalaridan.(KP-691, KP-3007)



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

3 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000